

Fortepiano ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar

Go‘zal Aktam qizi Madjidova
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli, ularning mazmuni, amaliy qo‘llanilishi va samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Fortepiano darslari avvallari faqat amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularni onlayn darslar, video darsliklar, interaktiv dasturlar va raqamli simulyatorlar orqali o‘rgatish imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada fortepiano ta’limiga joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularning afzallikkleri va qo‘llanilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Fortepiano ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilarning faolligi, musiqaga qiziqishi va ijodiy fikrlash qobiliyatları oshmoqda.

Kalit so‘zlar: fortepiano, interaktiv metodlar, axborot texnologiyalari, raqamli vositalar, multimedia, onlayn ta’lim, kreativ yondashuv

Modern pedagogical technologies in piano education

Guzal Aktam qizi Madjidova
Bukhara International University

Abstract: This article discusses the role of modern pedagogical technologies in piano education, their content, practical application and effectiveness. Previously, piano lessons were taught only through practical classes, but today they can be taught through online lessons, video tutorials, interactive programs and digital simulators. This article analyzes the essence of modern pedagogical technologies being introduced into piano education, their advantages and application mechanisms. The introduction of modern pedagogical technologies in piano education is fundamentally changing the educational process. These technologies increase students' activity, interest in music and creative thinking skills.

Keywords: piano, interactive methods, information technologies, digital tools, multimedia, online education, creative approach

An’anaviy o‘qitish metodlarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilishi ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi. Xususan, musiqa ta’limi sohasida, ayniqsa fortepiano o‘qitish jarayonida yangi texnologiyalar

o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni faollikka undash va individual yondashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Fortepiano darslari avvallari faqat amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularni onlayn darslar, video darsliklar, interaktiv dasturlar va raqamli simulyatorlar orqali o‘rgatish imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada fortepiano ta’limiga joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularning afzallikkлari va qo‘llanilish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - bu o‘quv jarayonining maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli va samarali tashkil etilishini ta’minlovchi interaktiv metod va vositalar majmuasidir. Fortepiano ta’limida bunday texnologiyalar nafaqat bilim berish, balki musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va mustaqil ishslash ko‘nikmalarini tarbiyalash imkonini beradi.

Quyidagi zamonaviy texnologiyalar fortepiano ta’limida keng qo‘llanilmoqda:

- Multimediya texnologiyalari - video darslar, audio yozuvlar, animatsiyalar orqali musiqia nazariyasi va amaliy mashg‘ulotlarni birlashtirish.
- Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) - internet resurslari, onlayn dasturlar, mobil ilovalar orqali o‘quv jarayonini tashkil etish.
- Interaktiv doskalar va displeylar - real vaqtda notalarni tahlil qilish, ijroni kuzatish va tahlil qilish imkoniyati.
- Virtual musiqiy simulyatorlar - o‘quvchilarni masofaviy tarzda mashq qilishga o‘rgatish.

Fortepiano ta’limida AKT vositalaridan foydalanish. Bugungi kunda AKT vositalari yordamida fortepiano darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Onlayn platformalar (masalan, Yousician, Simply Piano, Flowkey kabi ilovalar), raqamli notalar dasturlari (masalan, Musescore, Noteflight), shuningdek YouTube orqali mashhur fortepiano pedagoglarining darslarini tomosha qilish imkoniyati mavjud.

AKT yordamida fortepiano o‘qituvchisi:

- o‘quvchining mashg‘ulotlarini yozib olishi;
- o‘quvchi bajargan topshiriqni video shaklida tahlil qilishi;
- real vaqt rejimida onlayn maslahatlar berishi;
- musiqiy o‘yinlar orqali darsni interaktivlashtirishi mumkin.

Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil ishslash ko‘nikmalarini oshiradi, ularni kreativ va mustaqil fikrlovchi musiqachilar sifatida tarbiyalaydi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat o‘rgatuvchi, balki motivatsiya yaratuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchi o‘z ijrosini yozib olib, uni tahlil qilish orqali o‘zidagi kamchiliklarni mustaqil aniqlay oladi. Bunday yondashuv mustaqil fikrlash va o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli pianinolar va MIDI texnologiyalar orqali o‘quvchi notalarni avtomatik yozib olishi,

ritm va tempni kuzatib borishi mumkin. Bu esa, ayniqsa boshlang‘ich bosqichdag‘i o‘quvchilar uchun juda foydalidir.

Onlayn ta’lim va masofaviy mashg‘ulotlar. COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn ta’limning dolzarbliyi yanada oshdi. Hozirda ko‘plab musiqa maktablari onlayn darslarni asosiy yoki yordamchi vosita sifatida qo‘llashmoqda. Fortepiano o‘qituvchilari Zoom, Google Meet, Skype orqali darslar o‘tmoqda. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoki nogironligi bo‘lgan bolalar uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Biroq masofaviy ta’limda ham ayrim muammolar mavjud: texnik ta’minot, internet tezligi, jonli muloqot yetishmovchiligi. Shunday bo‘lsa-da, texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va ulardan maqsadli foydalanish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Fortepiano ta’limida zamonaviy texnologiyalarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Interaktivlik - o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadi, passiv tinglovchi emas, balki faol ijrochi bo‘lishadi.
2. Individual yondashuv - har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos dastur tanlanadi.
3. Ijodkorlikni rivojlantirish - yangi texnologiyalar musiqani o‘zgacha yondashuv bilan ijro etishga imkon beradi.
4. O‘z-o‘zini nazorat qilish - texnologiyalar yordamida o‘quvchi o‘zini tahlil qiladi va kamchiliklarini bartaraf etadi.
5. O‘quvchining mustaqilligini oshiradi - darsdan tashqari vaqtida ham mashq qilish imkoniyati bo‘ladi.

Xulosa. Fortepiano ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilarning faolligi, musiqaga qiziqishi va ijodiy fikrlash qobiliyatları oshmoqda. O‘qituvchilar esa zamonaviy vositalar orqali yanada sifatli, samarali va moslashuvchan darslar tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musiqa ijrochiligi va pedagogikasi masalalari. -T.: 2003y
2. Djomalova. D. “Fortepiano” darsligi.-T. “Musiqa” 2018 y
3. Zakirova Sh. O’zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T., «O’zbekiston». 2010.
4. I.I.Axtamov. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17

6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o'rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o'rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. Eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
10. I.I.Axtamov. Maqom an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696
15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. Scientific progress 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. Scientific progress 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. Scientific progress 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. Scientific progress 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. Scientific progress 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. Scientific progress 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. Scientific progress 2 (1), 1052-1059

22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. *Scientific progress* 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. *Scientific progress* 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музыкально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389